

**AQLI ZAIF BOLALARING MATEMATIK TASAVVURLARNI ERTA  
SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI**

**Muzaffarova Xayitgul**

*JDPU maxsus pedagogika kafedrasи p.f.f.d (PhD)*

**Normurodova Shaxlo Anvar qizi**

*Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya)*

*mutaxassisligi 1- bosqich magistranti*

**Annotasiya:** Maqolada mакtabgacha yoshдagi bolalarda matematik tasavvurlarni erta shakllantirishning zamonaviy konsepsiyalari, bolalarni matematikadan tayyorlashning hozirgi bosqichida bilish usullarini ahamiyati va hozirda matematik rivojlantirish dasturlarini tanlash, turli ta'lim modellari va texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini oshirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Maktabgacha yosh, matematika, bilish, usul, kuzatish, obyekt, qiyoslash, taqqoslash, tasniflash, tahlil, sintez, xulosalash, baholash, eksperiment.

**Abstract:** The article describes the modern concepts of early formation of mathematical ideas in preschool children, the importance of knowledge methods at the current stage of preparing children for mathematics, and the selection of mathematical development programs, and the increase of access to various educational models and technologies.

**Keywords.** Preschool age, mathematics, cognition, method, observation, object, comparison, classification, analysis, synthesis, conclusion, evaluation, experiment.

Maktabgacha muassasalarda pedagogik faoliyatida elementar matematik ta'limni takomillashtirish muhim yo'naliш dasturiy-metodik ta'minot ishi bilan bog'liq. Hozirda matematikadan mashg'ulotlarni rivojlantiruvchi dasturlarini turli ta'lim modellari va texnologiyalarini to'g'ri tanlash asosida tashkil etish, amaliy va o'yin faoliyatini birlashtirish kabilarga yo'naltirganligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik ta'limini zamonaviy konsepsiyalari bo'lgan elementar matematik tasavvurlarni erta shakllantirish, bolalarni matematik mantiq olamiga olib kirish, fikrlash mustaqilligini rivojlantirish, dunyonи bilishning yangi usullarini o'zlashtirish, boshlang'ich maktabda ta'lim olish uchun zarur nazariy fikrlashni shakllantirishga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarini tayyorlashning hozirgi bosqichida bilishning quyidagi: kuzatish (jumladan, o'z-o'zini kuzatish), obyektlarni tekshirish, qiyoslash, taqqoslash, tasniflash, tahlil, sintez, xulosalash, baholash, eng oddiy o'lchashlar, bevosita predmetlar, ularning modellari bilan, obrazlari bilan tasvirga tayanib yoki usiz eksperiment o'tkazish usullari tobora ahamiyatlidir.

Matematika bilan shug‘ullanganda bolalarda nafaqat matematik tushunchalar, balki o‘quv faoliyati dastlabki ko‘nikmalari, o‘quv vazifasini ajratish malakasi, uning yechimini izlash yo‘nalishlarini belgilash, olingan natijalarini baholash, xatolarni to‘g‘rilash malakalari shakllanadi. Dasturiy-metodik tavsiyalarda matematik faoliyatda bolaning intellektual va emotsiyon rivojlanishida uyg‘unlikka intilish, zarurligiga e’tibor qaratiladi. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda sonlar haqidagi hikoya-miflarni teatrlashtirishdan faol foydalanish tavsiya etiladi. Rang xilma-xilligi bilan tanishtirish ko‘zda tutiladi; makon tasavvurlari geometrik tasavvurlar bo‘limiga kiritiladi.

Bolani faoliyatda rivojlantirish vazifalari to‘rt asosiy yo‘nalisli ijtimoiy, bilish, estetik va jismoniy rivojlantirish bo‘yicha berilgan faoliyatning elementar matematik turlari (sanash, o‘lchash, hisoblashli) sonlar bilan operatsiyalash, ulardan miqdor va kattalikni baholashda foydalanish imkonini beradi. Intellektual ijodiy faoliyat omillari matematik bilimlarni va malakalarni yangi sharoitlarga ko‘chirishga ko‘maklashadi. Bolalar egallagan harakat usullari matematik mazmuni egallashning o‘ziga xos mexanizmi sanaladi.

Maktabgacha yoshdagagi aqli zaif bolalar matematik tasavvurlarini rivojlantirish normal rivojlanayotgan bola matematik rivojlanishiga ko‘ra ko‘proq ta’lim olayotgan pedagogik sharoitlar sifatiga bog‘liq, ular uchun xarakterli faoliyatning hech bir turi maxsus ta’limsiz to‘laqonli rivojlanmaydi. Chunki bu bolalarda korreksion ta’sir, avvalo faoliyatning psixologik mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. Faoliyatning barcha ehtiyojli-motivatsiyali, mazmunli, operatsion va natijaviy tarkibiy komponentlari bu toifa bolalarda shakllanmagan boladi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bolaning senso-motor funksiyalarini rivojlantirish, uni o‘rab turgan makonda oriyentirlash, nutqiy ko‘nikma va shu kabilarni rivojlantirishsiz mumkin emas. Odatda, ko‘rsatilgan funksiyalar aqli zaif bolalarda yetarlicha rivojlanmaydi, bu xolat shuningdek organik genezisning psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun ham xarakterli hisoblanadi.

Intellektual rivojlanishi muammoli bo‘lgan chaqaloq va ilk yoshdagagi bolalar harakat va bilish faolligi juda past bo‘lishi kuzatiladi, ularda harakat koordinatsiyasi buzilgan bo‘ladi, bu ularning o‘yin faoliyatida kuzatiladi. Intellektual rivojlanishda muammolari bolgan bolalarning harakat nuqsonlari ko‘proq koordinatsion sohada namoyon boladi. Bu toifa bolalarda koordinatsiyaga ko‘ra murakkab harakatlarni bajarishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, topshiriqlarni bajarish tezligi va chaqqonligi past, harakatlarning kuch, vaqt va makon parametrini farqlash va ritmlash qobiliyati buzilgan bo‘ladi (N.P.Vayzman, Ye.N.Mastyukova va b.)<sup>14</sup>

Maktabgacha yosh davri - bolada nafaqat tashqi, ko‘rgazmali-amaliy, balki ichki, aqliy planda ham bajariladigan harakatlar tiklanish davri bo‘lib, bu ilk va maktabgacha

<sup>14</sup> M.P. Xamidova, M.Y. Ayupova “Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi” — T.:2009. — 118 b.

yosh chegarasida idrok strukturasida kechadigan jiddiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalarda qo'pol sensor yetarlicha rivojlanmaganlik shunda ifodalanadiki, hatto predmetli faoliyatda ular predmetlarning makon belgilarini hisobga olmaydi, kuch bilan harakatlanadi, «izlash», natijali sinovdan foydalana olmaydi. Maktabgacha yoshdagi maxsus ta'limsiz ularda topshiriqda ko'rib oriyentirlanish shakllari amalda mavjud emas. Bu predmetli, predmetli-o'yin harakatlariga salbiy ta'sir etib, ular ko'pincha manipulatsiyalash bilan almashtiriladi, tasviriy faoliyatni egallash, matematik tasavvurlar shakllanishi va shu kabilarga salbiy ta'sir qiladi.

Intellektual yetishmovchiligi bolgan bola idroki sekinlashganligi va fragmentalligi bilan xarakterlanadi. Eshitish va ko'rish diqqati hamda turli belgilarga ko'ra jamlash, identifikatsiyalash va guruqlash oqsaydi. Bularning hammasi miqdor tushunchalari shakllanishini qiyinlashtiradi, Bolaga ko'rish yoki eshitish idroki orqali hisobni amalga oshirishga imkon bermaydi. Bolalar predmetlar, tovushlar sanashda xatoga yo'l qo'yadi va shu kabi.

U.V.Ulenkova tajribalari ko'rsatadiki, psixik-rivojlanishi orqada katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarida maqsadli korreksion - rivojlantirish ishlari ularda shakl, kattalik, miqdor munosabatlariga oid tasavvurlarni rivojlantirish, shuningdek, ularni bu abstraksiyalarni so'zda ifodalashga o'rgatish imkonini beradi. Tasavvurlarni o'rganish bo'yicha qator ishlarda aniqlanishicha, maktabgacha va maktab yoshidagi aqli zaif bolalarda tasavvur aniq emasligi, ularni sistemalashtirish kuchsizligi, dinamikasining pastligi, adekvat tasavvurlarni dolzarblashtirish qiyinchiliklari, idrok etilayotgan obektlarning makonda nisbatlanishining to'liq emasligi va xotirada yaxshi saqlanmasligi xarakterli xususiyatdir.

Normal rivojlanayotgan va aqli zaif bolalarda ko'rgazmali fikrlash qonuniyatlarini qiyosiy tadqiq qilish Ye.A.Strebeleva tomonidan amalga oshirilgan. Muallif me'yorda rivojlanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar fikrlashining ko'rgazmali shakllari rivojlanishining barcha bosqichlarini maxsus maqsadga yo'naltirilgan, pedagogik ta'sirsiz o'tadi deb aytgan. Ulardan farqli o'laroq, aqli zaif bolalar fikrlash qobiliyatining rivojlanishida ijobiy natijalarga faqat uzoq muddatli korreksiyalash jarayonida erisha oladi, deb xulosa qiladi. Ye.A.Strebeleva aniqlashicha, maktabgacha yosh oxiriga kelib fikrlash qobiliyatining rivojlanishdagi tafovutlar birmuncha silliqlanadi, biroq sifat jihatidan farq qiladi.

Respublikamizda maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarga bag'ishlangan yagona ilmiy izlanish o'tkazgan olima S.G.Kim hisoblanadi. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishga oid eksperimental mashg'ulotlarni aqli zaif bolalarning intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda guruqlar bo'yicha olib borish zarurligini asosladi. Ularda fikrlash faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, tafovutlari tahlil etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mактабгача tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish maxsus pedagogika va matematika o'qitish metodikasining dolzarb muammolaridan bo'lib, faqat ta'limiyl jihatdangina emas, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mактабгача yosh davridayoq aqli zaif bolalarda elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish ularning me'yоридаги tengdoshlari darajasiga ko'tarilishiga rag'bat uyg'otadi. Buning uchun esa muammoning yechimiga doir tegishli ish usullari va metodik tavsiyalar ishlab chiqish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridandir.

**FOYDALANILADIGAN ADBIYOTLAR:**

1. Axmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. «Matematika». O'qituvchi kitobi. Toshkent: «Uzinkomtsentr» - 2003 yil
2. Jumayev M va boshqalar. «Matematika o'qitish metodikasidan praktikum». Toshkent: «O'qituvchi» - 2004 yil
3. Sagatov M.I. Matematika va uni o'qitish maxsus metodikasi. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006 y.
4. M.P. Xamidova, M.Y. Ayupova "Mактабгача tarbiya maxsus metodikasi" — T.:2009. — 118 b.